XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-fevral VII-5-36-8-108-K/25 Oltinsoy tumani

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risida

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Oltinsoy tumani Soliq inspeksiyasi boshlig‘i R.Boymirzayevning 2025-yil 22-yanvardagi 01-00604-son xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24 moddalariga muvofiq xalq deputatlari Oltinsoy tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Oltinsoy tumani Soliq inspeksiyasi boshlig‘ining R.Boymirzayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi orinbosari (B.Abdurayimov), bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Yu.Hakimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi MAXMATRAYEMOV BAXROM OMONOVICH

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2025-yil 13-fevraldagi
VII-5-36-8-108-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisientlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, *(pivo va vinodan tashqari)*	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Oltinsoy tumani	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2025-yil 13-fevraldagi
VII-5-36-8-108-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisientlar*

ming so‘mda

T/r	**Tuman nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanec jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Mar-mar	Granit-lar	Gips toshi, gips va angidrid ganch	G‘isht Cherepi-tsa xom ashyosi, lyosslar va lyossi-mon jinslar	Qum-shag‘al aralash-masi, qurilish qumi, qumto-shlar)
1	Oltinsoy tumani	1,1	1,1	1,1	1,1	1,1	1,1	1,1

***** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (*sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)* qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisient belgilashga haqli